



“OCHLIK” YOKI O‘LIM: MARTIN IDEN VA HAMSUN QAHRAMONI  
O‘RTASIDAGI TAFOVUT

**Sayfiddinova Dinora Zafarovna**

*Samarqarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti  
Filaloga va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Ushbu maqolada Jek Londonning 'Martin Iden' va Knut Hamsunning 'Ochlik' asarlari qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikki asar qahramonlarining o‘xshash va farqli jihatlari, ularning jamiyatdagi o‘rni hamda ochlik va yo‘qsilik fonida inson irodasi va g‘ururining namoyon bo‘lishi yoritib berilgan. Shuningdek, asarlarning fojiviy yakuni va qahramonlarning dengiz bilan bog‘liq qismlari psixologik nuqtayi nazardan tahlil etilgan

**O‘zbek tilida:**

**Kalit so‘zlar:** *Martin Iden, Knut Hamsun, Jek London, ochlik, g‘urur, iroda, ma‘naviy tashnalik, qismat, individualizm, psixologik tahlil, qiyosiy adabiyotshunoslik.*

**In English:**

**Keywords:** *Martin Eden, Knut Hamsun, Jack London, hunger, pride, will, spiritual thirst, fate, individualism, psychological analysis, comparative literature. “Ochlik” — bu insonning jismoniy ochligi yoki ma‘naviy tashnaligidir. Jek London qanday yozuvchi, uning asarlari bizni nimaga undaydi? Yozuvchining “Martin Iden” asari insonni intilishga chorlaydimi yoki halokatgami? Degan savol har bir kitobxonni qiziqtiradi. Yoki norvegiyalik buyuk yozuvchi, Nobel mukofoti sovrindori Knut Hamsunning “Ochlik” asari insonni och bo‘lishiga qaramay, g‘ururini ustun ko‘rishi muhimroqmi?*

Knut Hamsunning qahramoni och qoldi, hayot uchun kurashdi, lekin u nega yozuvchilikdan vaqtincha voz kechib, jismoniy omon qolishni tanladi? Har ikki yozuvchining asarlari shu darajada insonga savollar uyg‘otadiki, qay biriga javob topishni bilmay dol qoladi. Ikki asarning ham o‘xshash tomonlari bor: har ikki qahramon ham yozuvchi bo‘lishni istaydi. Lekin ularning maqsadlari turlicha: biri o‘z sevgilisiga erishish uchun bo‘lsa, yana biri boyib, o‘z hayotini yaxshilash uchun. Afsuski, xotima umuman hayotni kutilmagan burilishga aylantiradi.

Jek Londonning Martin Ideni oddiy dengizda, kemada oddiy matros edi. Hayotining ko‘p qismi kemalarda o‘tgan va oddiy yerda ham kema palubasida yurgandek chayqalib-chayqalib harakat qiladigan oddiy bir inson edi, xolos. Uning hayotida bir palla — o‘qish va hayot uchun kurashish hamda harakat qilish unga erishish kerak bo‘lgan cho‘qqini ko‘rsatdi. Muallif Idenning hayotiga kirib kelgan bu qiz (Ruf) uchun juda katta burilish bo‘ldi. Iden Ruf uchun hammasiga tayyor edi. Ruf uchun juda ko‘p kitoblar o‘qidi va she‘rlar, maqolalar yozib tanilish uchun harakat qildi. Ruf esa uni maqola yoki hikoyalari ortidan boyib ketishiga



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ishonmasdi, ko'ngli kelmasdi. U otasining qo'lida yoki boshqa ishda ishlab pul topishini va o'z jamiyati bilan teng bo'lishini xohlardi.

Afsuski, Martin Iden hech kimning yordamisiz, o'z kuchi va asarlari bilan boy bo'lishni istardi. Iden juda ko'p qiyinchilik va och qolishiga qaramay harakat qildi. U o'z buyumlarini garov evaziga qo'yib, yozgan maqolalarini jo'natish uchun markalar sotib oldi. U hammasiga sabr qildi, pul topish uchun hatto kir yuvish korxonasida (kir tozalovchi) ham ishladi. Lekin u to'xtamadi va shunchalikda ham harakat qildi. Hammasi Ruf uchun edi.

Muallif yana bir haqiqatni ochib bergan: bu buyuk asar insonning puli, moli yo'qligidan hatto yaqin qarindoshi va o'z sevgilisi ham voz kechishini shunchalik chiroyli tasvirlaganidan qoyil qolish kerak. Iden boy bo'lib hamma obro'-e'tibor, barcha-barchasiga erishdi, lekin u endi yashashni va kimga ishonishni istamasdi. Sababi, u hech narsasi yo'qligida ham, unga tasalli berish uchun hech kim yo'q edi. Iden obro'-mansabga erishganida shuni tushunib yetdiki, u endi baxtli emas, u shunchaki boy edi, xolos.

Knut Hamsun esa o'zining "Ochlik" asarida savollarga to'la bo'lgan bu buyuk asarni, insonning g'ururi shunchalik baland, ochligini juda chiroyli tasvirlab bergan. Hamsun qahramoni hayot talab qilgan och qolishiga qaramay, o'z g'ururidan voz kechmagan buyuk bir qahramon. Ochlik — bu oshqozonning og'rig'i yoki kunlab och qolish emas, balki bu insonning qanchalik g'ururli va "Meni mag'lub etolmaysiz, albatta maqolam mashhur bo'ladi" deb ertangi kun uchun ishonishimi? Knut Hamsunning asari hozirgi hayotimizga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki hozirgi zamonda ochlik — asardagi uning kunlab och qolgani emas, balki hozirgi ayrim insonlarning g'urursizligini ochib beradi.

Asarda inson o'z g'ururi uchun ochlikka ham, yo'qsilikka ham dosh bera olishini ko'rishimiz mumkin. Muallifning mohirligiga keladigan bo'lsak, u nega qahramonga ism qo'ymagan? degan savol keladi. Chunki bu bir qahramonga emas, balki butun insoniyat ochligini ochib berganiga guvoh bo'lamiz. Ochlik — insoniyat qadrligining sinovi. Asardagi qahramonning g'ururi shunchalik balandki, u kimdandir yordam so'rasa ham, o'z g'ururi bilan: "Agar iloji bo'lsa... Bo'lmasam unchalik muhtoj emasman" deya olishidan uning qanchalik muhtoj holatida ham g'ururli ekanini ko'rishimiz mumkin.

Qahramonning ochlik azobidan o'z barmoqlarini tishlashi — bu shunchaki jismoniy og'riq emas, balki irodaning so'nggi nuqtasidagi isyondir. Bu insonning psixologiyasiga ham juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chunki u o'z g'ururi tufayli tilanchilik yoki o'g'rilikni tan olmaydi. Bu uning o'zining ertangi kuniga ishonchini ochiq-oydin ochib bergan desak bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu ikki asarning xotimasi o'xshash: ikkisi ham dengiz tomon ketdi. Lekin ularning qismati boshqa-boshqa edi. Biri hayotini yangilash uchun ketdi, yana biri hayotini butunlay tugatdi. Lekin Martin Iden uchun o'lim — bu mag'lubiyat emas edi, balki u ishongan ideallarning soxtaligini tushunib yetganidan keyingi qat'iy qarori edi. Bu ikki buyuk yozuvchining asarlari orasida qariyb bir asr farq bo'lishiga qaramay, ular hali ham o'z dolzarbligini va buyukligini yo'qotgani yo'q.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jek London. Martin Iden. (O‘zbek tilidagi nashri).
2. Knut Hamsun. Ochlik. (O‘zbek tilidagi nashri).
3. V.V. Reshetov. O‘zbek dialektologiyasi. (Sizning sohangizga oid fundamental manba sifatida).
4. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Sintaksis va uslubshunoslik bo‘limlari).

